

**PREZIDENT MAKTABLARI O`ZBEKISTONDA III RENESSANS
POYDEVORIGA ASOS BILIM MASKANLARI SIFATIDA**

Ilmiy rahbar: Tanieva Guldona

Tarix fanlari doktori, professor

G`ulomova Zahro Davlatjon qizi

Nizomiy nomidagi O`zbekiston milliy pedagogika universiteti

Tarix fakulteti 202-guruh talabasi

(+998947463353)

zahrogulomova40gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`zbekistonda tashkil etilgan dastlabki prezident maktablari, ularning faoliyati, rivojlanishi haqida, bu maktablar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida ma`lumotlar keltiriladi. Bu maktablardagi darsliklar, ularning sifati, tayyorlanishi, maktabdagi shart- sharoitlar, o`quvchilarga qo`yilgan talablar haqida yoziladi. Prezident maktablarining tashkil etilishi bo`yicha qarorlar, nizomlar, maktablarning nima maqsadlarda tashkil etilganligi, bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlar haqida ma`lumotlar keltiriladi.

Tayanch so`zlar: Prezident maktablar, nizomlar, Toshkent, Xiva, Nukus, Shavkat Mirziyoyev, Vazirlar Mahkamasi, Ielts, Sat.

Аннотация: В статье представлена информация о первых президентских школах, созданных в Узбекистане, их деятельности, развитии и условиях, созданных для них. Описываются учебники, используемые в этих школах, их качество, подготовка, условия обучения и требования к учащимся. В статье представлена информация о решениях и положениях об учреждении президентских школ, целях их создания и достигнутых на сегодняшний день результатах.

Ключевые слова: Президентские школы, положения, Ташкент, Хива, Нукус, Шавкат Мирзиёев, Кабинет Министров, IELTS, СБ.

Annotation: This article provides information about the first presidential schools established in Uzbekistan, their activities, development, and the conditions created for these schools. It describes the textbooks in these schools, their quality, preparation, conditions in the school, and the requirements for students. It provides information about the decisions and regulations on the establishment of presidential schools, the purposes for which the schools were established, and the achievements achieved to date.

Keywords: Presidential schools, regulations, Tashkent, Khiva, Nukus, Shavkat Mirziyoyev, Cabinet of Ministers, Ielts, Sat.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yillik tantanalarida mamlakatimiz Prezidentining: “Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda”, - degan so'zlar yangradi. Shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini barcha sohalarda, jumladan ta'limda namoyon qildi. Ilm-fan, madaniyat, ta'limni rivojlantirish orqali Uchinchi Renessansni qurish g'oyasi ilgari surilmoqda.” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 16-noyabr sanasida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi chog'ida, Nukus shahrida bo'lib o'tgan uchrashuv davomida O'zbekistonning har bir hududida Prezident maktablarini tashkil etish to'g'risida g'oyalar shakllantirdi va 4 oydan so'ng “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” qarorga imzo chekdi ¹. 2019-yil iyun oyida “Prezident maktablari to'g'risida nizom” tasdiqlanib, sentabrda “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida” Prezident farmoni e'lon qilindi ². Prezidentning 2021-yilda imzolagan qaroriga muvofiq, agentlik nomi “Prezident ta'lim muassasalari agentligiga”ga o'zgartirildi. Prezident maktablari – O'zbekistonda tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalari hisoblanadi. Bu maktablar faoliyati yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun iqtidorli bolalarni aniqlash va o'qitishni ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-2021-yillar oralig'ida yurtimizda 14ta maxsus maktab tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4199-qarori asosida ilk prezident maktabi 2019-yil 5-sentabrda Toshkent shahrida, 2-dekabrda Namangan shahrida, 9-dekabrda Xiva shahrida va 11-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida tashkil etildi. Bu maktablarning dastlab cheklangan miqdorda tashkil etilishi ushbu muassasalarni boshqarish uchun mutlaqo yangi modelni sinab ko'rish zarurati bilan bog'liq bo'lgan.

Toshkent shahrida ochilgan zamonaviy ta'lim muassasida darslar Steam yo'nalishiga oid o'quv qo'llanma va darsliklar orqali olib boriladi. Bu maktabga kirish imtihonlari Cambridge International Education imtihon kengashi tomonidan o'tkaziladi. Bu maktabga 2019-yilda 5-10 -sinflar orasida hujjat topshirgan 7 mingga yaqin o'quvchidan 144 nafari o'qishga qabul qilindi. Kanadaning “Teachvay” va

¹ “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori”. www.https://Prezident.uz (2019-yil 20-fevral).

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni / www.https://Prezident.uz (2019-yil 9-sentabr).

Buyuk Britaniyaning “TIC Recruitment” rekruting kompaniyalari bilan hamkorlikda maktabga 30 nafar chet ellik mutaxasis tanlab olindi. “Shuningdek, 72 nafar O`zbekistonlik tajribali o`quvchilar jalb qilingan”³. 2021-yil maktabni 24 nafar o`quvchi bitirgan. Bitiruvchilar IELTS imtihonida o`rtacha 7 ballni qo`lga kiritgan, ular orasida 8,5 ball olganlari ham bo`lgan.

Namangan shahrida ochilgan zamonaviy ta`lim muassasida o`quvchilarning tahsil olish jarayoni asosan, Steam yo`nalishiga oid darslik va o`quv qo`llanmalar orqali olib boriladi. Bu kabi darslik va o`quv qo`llanmalar Cambridge Press, Oxford University Press hamda Collins kabi nashriyotlardan olib kelinadi. Bu maktabga 2019-yilda 5-10-sinflar orasida 7mingdan ortiq o`quvchi kirish istagida imtixon topshiradi. Shundan 144 nafari saralab olingan. Chet ellik malakali mutaxasislarni ishga yollash bo`yicha xizmat ko`rsatib kelayotgan Teachvay va TIC Recruitment rekruting kompaniyalari tomonidan 11 nafar mutaxasis maktabda dars berish maqsadida saralab olingan. Maktab bitiruvchilari shahodatnoma, attestat, shu bilan birga xalqaro darajadagi diplom (International Advanced Levels)ga ega bo`lishi mumkin. Muassasada 2020-yildan boshlab 11-sinf o`quvchilari uchun Cambridge Mock imtihonlari tashkil etilgan. Maktabni direktor sifatida Aziboyev Shuxrat Olimovich boshqaradi.

Xiva shahrida ochilgan zamonaviy ta`lim muassasasi 2,5 gektar maydonni egallaydi va 168 o`ringa mo`ljallangan. 2019-2020-o`quv yilida 5-10-sinflarga jami 144 nafar o`quvchi tanlab olingan. “Ularga dars berish uchun 9 nafar xorijlik mutaxasis, 21 nafar tajribali O`zbekistonlik o`qituvchilar jalb qilingan”⁴. Bu maktab ikki qavatli, o`quv binosi hamda yotoqxona va chet ellik o`qituvchilar uchun kichik mehmonxonadan iborat. O`quv sinflari interfaol yozuv taxtalari va tablolar bilan ta`minlangan. Maktabning sport majmuasi barcha zarur sport anjomlari bilan ta`minlangan, cho`milish havzasi, basketbol hamda futbol maydonchalari o`quvchilar ixtiyoridadir. Maktab kutubxonasida badiiy va o`quv adabiyotlari mavjud. Maktab o`quvchilari 5 mahal ovqat, bepul maktab formasi hamda bepul yotoqxona bilan ta`minlanadi. Sinfxonalar smart doskalar bilan jihozlangan.

Prezident maktablariga 4 sinfni tamomlagan o`quvchilar qabul qilinadi. Bu maktablarga hujjatlarni topshirish uchun talabgorlar Steam fanlardan o`tgan o`quv yilini matematika va tabiatshunoslik fanlarini a`lo baholarga tugatgan bo`lishi shart. Shu bilan birga talabgor o`quvchilar o`qiydigan maktab Prezident maktabi joylashgan hududga mansub bo`lishi lozim. Har bir alohida Prezident maktabining qabul kvotasi 5-sinf uchun 24 nafar o`quvchidan iborat bo`lib, ular keyinchalik ikkita sinfga bir xil-12 nafardan qilib taqsimlanadi. Prezident maktablariga hujjat topshirishda o`quvchilar elektron tarzda “Prezident ta`lim muassasalari agentligi” sayti orqali ro`yxatdan

³ “Toshkent shahridagi prezident maktabi”/.<https://piima.uz> 2023-yil 9-sentabr.

⁴ “Shavkat Mirziyoyev Xiva shahridagi Prezident maktabini borib ko`rdi”.www/https//kun.uz.

o`tiladi: tug`ilganlik haqida guvohnoma (kinder passport) nusxasi, tasdiqlangan shakldagi ma`lumotnoma nusxasi, 3x4 o`lchamdagi rasm, baholar tabelining nusxasi, o`quvchining ota-onasi yoki ularni o`rnini bosuvchi shaxslarning fuqorolik pasporti ma`lumotlari. Agarda hujjatlarni topshirishda kamchiliklar kuzatilsa, ularni 48 soat ichida tuzatib, qayta jo`natish talab etiladi. Prezident maktablariga kirish imtixonlarini o`tkazish muddati va joylari qabul komissiyalari tomonidan belgilanadi. Kirish imtixonlari videokuzatuv va boshqa texnik vositalar qo`llangan holda maxsus ajratilgan joylarda o`tkaziladi. Imtixonlar paytida talabgorlar, kuzatuvchilar, bino rahbarlari va ishchi guruhning mas`ul shaxslariga aloqa vositalarini olib kirish va foydalanish, talabgorlarga kirish imtixonlariga ma`lumotnoma materiallari va elektron hisoblash texnikasini olib kirish va foydalanish taqiqlanadi. Ushbu nizomning talablari buzilganda ishchi guruhning mas`ul shaxslari o`quvchini majburiy tartibda chetlatish dalolatnomasini tuzgan holda kirish imtihonlaridan chetlatish huquqiga ega. Bu maktablarga kirish imtihonlari ikki bosqichda o`tkaziladi. 1-bosqich saralash imtihoni hisoblanib, matematika fanidan 30 ta test topshirig`idan iborat. 2-bosqich tanqidiy fikrlash (16ta masala), muammoni yechish bo`yicha (24ta masala) va ingliz tilidan test savollaridan iborat. Kirish imtihonlariga taaluqli barcha materiallar (so`rovnomalar, testlar, javoblar va boshqalar) maxfiy xarakterga ega hisoblanadi va ularning maxfiyligi ta`lim sohasida xizmatlar ko`rsatuvchi ixtisoslashgan xorijiy tashkilot, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamda Davlat test markazi tomonidan ta`minlanadi. Oldingi yillarga tegishli ba`zi bir test namunalari "Prezident ta`lim muassasalari agentligi" saytiga yuklab borilishi mumkin. Kirish imtihonlari natijalarini tekshirish va talabgorlarning javoblari natijalarini baholash ta`lim sohasida faoliyat yurituvchi xorijiy tashkilot "Cambridge Assessment" tomonidan amalga oshiriladi. Imtihon natijalari qayta ko`rib chiqilmaydi, imtihon natijalari bo`yicha materiallar talabgorlarga taqdim etilmaydi. Talabgor o`quvchi Prezident maktabiga qabul qilingan taqdirda, uning ota-onasi yoki qonuniy vakillari o`quvchining Prezident maktablarida haftada 5 kun davomida internat shaklida ta`lim olishga rozilik bildirishi talab etiladi. Imtixon topshirib kerakli ball to`play olmagan, lekin, yuqori ball olgan o`quvchilar boshqa ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olishni davom ettirishlari mumkin.

2021-yilda ilk Prezident maktablari (Nukus, Xiva, Namangan va Toshkent sharidagi)ning 96 nafar bitiruvchilarining barchasi nufuzli xorijiy oliy ta`lim muassasalarida o`qish uchun taklif oldi. Ular xorijiy oliygohlarning 28mln.dollar miqdorida ta`lim grantlari qo`lga kiritgan. Bu maktablarga pedagoglar tanlov asosida qabul qilinadi. Hozirgi kunda Prezident maktablarida 350 nafar mahalliy va 143 nafar xorijiy malakali pedagog kadrlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar va Cambridga dasturi asosida saralangan iqtidorli o`quvchilarga dars berib kelmoqda. Agentlik tizimidagi maktab o`quvchilari tomonidan 4-yil davomida xalqaro olimpiadalarda 88

ta oltin, 25 ta kumush, 49 ta bronza medal qo`lgan kiritildi. 2022-yilda Xiva shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi Hidoyat Ro`zmetov dunyo reytingida 37-o`rinda turuvchi Buyuk Britaniyaning King`s College, Top-300talikka kiruvchi University of Arizona hamda Top-1000 talikka kiruvchi jami 23 ta oliy ta`lim muassasalaridan 2,5 mln.dollar miqdorida ta`lim grantini yutib oldi. Aynan 2022-2023- o`quv yilida Prezident maktablarini 326 nafar o`quvchi bitirib, barchasi (100 foiz) xalqaro til bilish (IELTS) sertifikatini qo`lga kiritishdi. Ularning 50 foizi (168 nafari) xalqaro matematika va ingliz tilini bilish darajasini baholovchi (SAT) sertifikatiga ega bo`ldi. Bundan tashqari bitiruvchilarning 84 foizi (275nafari) muddatidan oldin nufuzli xorijiy oliygohlarda o`qish imkoniyatlariga ega bo`lishdi. Bitiruvchilar xorijiy oliygohlarning jami 104,4 mln.dollar miqdorida ta`lim grantini yutib olishga muvassar bo`lishdi. Shundan 5,5 foizi (18nafari) to`liq grant asosida o`qish imkoniyatiga ega bo`lgan. 2023-yilda Namangan shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi Go`zalxon Haydarova dunyo reytingida 7-o`rinda turuvchi AQSHning "Garvard" va "Princeton" universitetlarining 100 foiz grantini qo`lga kiritdi. Toshkent shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi Jafar Arifjanov dunyo reytingida 6-o`rinda turuvchi "California Institute of Technology" oliygohining grantini yutgan birinchi o`zbekistonlik talabaga aylandi. 2023-2024- o`quv yilida Agentlik tizimidagi Prezident maktablarining 319 nafar o`quvchilari mavjud bo`lib, ulardan hozirgi vaqtga qadar 27 nafari yuqori natijalarni qo`lga kiritdi. Yana Jizzax shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi Orzikulov Jahongir bir vaqtini o`zida TOP 1000 talikka kiruvchi 7 ta (Eckerd College, Wittenberg University, Bridgewater college, Augustana University, University of Marymount Baltimore County) OTMning 100% grant sovrindori bo`ldi. Qarshi shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi Jovliyev Abdumalik Mirmuhsin o`g`li esa TOP 500talikka kiruvchi 5 ta (Xiamen University of Malaysia, Knox College, The College of Wooster, Stetson University, Pace University) OTMning 100%lik granti sohibi bo`ldi. Umumiy hisobda barcha Prezident maktablarining bitiruvchilari bugunga qadar qo`lga kiritgan grant miqdori 10mln AQSH dollardan oshdi.

Prezident maktablari internat-maktab bo`lib, bu yerda bepul umumiy o`rta ta`lim beriladi. Bu maktablar Agentlik tomonidan tasdiqlangan akademik o`quv kalendari hamda qat`iy belgilangan kun tartibi asosida tashkil etiladi. Dars mashg`ulotlari 8:30dan boshlanib, asosiy akademik jarayonlar 15:30 ga qadar davom etadi. Darsdan tashqari paytlarda o`quvchilar qiziqishlariga ko`ra turli o`quv to`garaklari (fan olimpiadalariga tayyorgarlik, IELTS, SAT, Zakovat, Robotexnika, Koreys tili va fan to`garaklari) ma`naviy-marifiy jihatdan rivojlantiruvchi mashg`ulot (musiqa, raqs, teatr, radio, kulolchilik), sport to`garaklari (suzish, basketbol, volleybol, futbol, shaxmat, stol tennisi) va Milliy Gvardiya bilan hamkorlikda ot sporti va kamondan otish kabi mashg`ulotlarga jalb etiladi. Shu bilan birga o`quvchilar mustaqil izlanishlar olib borib, bir qator loyihalarda qatnashib kelishadi. Shunday qilib bu maktablar,

O`zbekiston yoshlarini ta`limni rivojlantirish sari yetaklamoqda. Bu maktabda o`qigan yoshlar boshqa chet davlatlarga grant yutish orqali, chet davlatlar ta`lim tizimini, rivojlanish yo`llarini o`rganmoqda. Ular xorij ta`limi bilan yurtimizdagi ta`limni taqqoslamoda. Aynan ta`lim sohasining rivojlanishi Uchinchi Renessansni qurish imkonini bermoqda. 2019-yilda barcha viloyatlarimizda tashkil etilgan Prezident maktablari Uchinchi Renessans uchun mustahkam poydevor sifatida namoyon bo`lmoqda. Bunday maktablarda ta`lim-tarbiya olayotgan o`quvchilar o`z bilimlari bilan O`zbekiston zaminida III uyg`onish davrini boshlab berishlariga ishonchimiz komil. Aynan Prezident maktablari Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo`lida asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Biz yoshlar ham yurtboshimiz tomonidan yaratilgan shart-sharoitlardan foydalanib, III Uyg`onish davrini yaratishimiz zarur!

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1."Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori". [www.https://Prezident.uz](https://Prezident.uz) (2019-yil 20-fevral)
- 2.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni / [www.https://Prezident.uz](https://Prezident.uz) (2019-yil 9-sentabr).
3. Toshkent shahridagi prezident maktabi".<https://piima.uz> 2023-yil 9-sentabr.
4. Shavkat Mirziyoyev Xiva shahridagi Prezident maktabini borib ko`rdi".[www/https://kun.uz](https://kun.uz).